XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2023 - yil 29 - dekabr VI-81-231-8-0-K/23 Surxondaryo viloyati hokimligi

Viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov ta’riflarini qayta ko‘rib chiqish va ma’qullash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-noyabrdagi “Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish uchun to‘lovlarni to‘lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5580-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentyabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-son qarori ijrosini ta’minlash hamda viloyat hududida maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov ta’riflarini qayta ko‘rib chiqish maqsadida, deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Surxondaryo viloyati Tabiat resurslari boshqarmasi Surxondaryo viloyati “Toza hudud” davlat unitar korxonasining 2023-yil 9-oktabrdagi 01-05/229-sonli xati, Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining “Toza hudud” davlat unitar korxonasiga 2023-yil 27-sentabrdagi 22-05-13/5243-sonli berilgan xulosa xati va Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasining “Toza hudud” davlat unitar korxonasiga 26.09.2023-yildagi 01-03/2481-sonli berilgan xulosa xati inobatga olinsin.

2. Viloyat hududida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmati bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlar

ta’riflari **ilovaga muvofiq ma’qullansin.**

3. Quyidagilar:

barcha jismoniy va yuridik shaxslar mazkur qaror bilan belgilangan tariflar asosida chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmati uchun to‘lovlarni belgilangan tartibdagi rasmiylashtirilgan shartnoma asosida **oyning o‘ninchi sanasidan** kechiktirmay amalga oshirish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lov iste’molchilar va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar o‘rtasida tuziladigan qonunda belgilangan tartibda shartnomalarga muvofiq bevosita xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarga 100 (yuz) foiz to‘lash asosida amalga oshirilishi qayd etilsin.

4. Viloyatdagi barcha xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar:

aholi punktlarida joylashgan chiqindi to‘plash shaxobchalari va konteynerlarni zamonaviy talablar asosida o‘rnatish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifatli, o‘z vaqtida va sanitariya qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirilishini ta’minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar bilan qonunda belgilangan tartibda shartnomalar imzolasin;

davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar va shartnomalardagi majburiyatlarga to‘liq rioya etish uchun javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

5. Viloyatdagi tuman (shahar) hokimliklariga:

viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasiga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lovlarni to‘lovchi jismoniy va yuridik shaxslarning haqqoniy hisobini yuritishga ko‘maklashish;

tuman (shahar) hududidagi xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarga hududdagi jismoniy va yuridik shaxslar bilan qonunda belgilangan tartibdagi shartnomalar tuzishda amaliy yordam ko‘rsatish;

aholi punktlari hududidan chiqindi tashishning reja-grafigini tasdiqlash

hamda tasdiqlangan reja-grafik asosida chiqindilarni tashish xizmatlari amalga oshirilishini qat’iy nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (R.Safarova)ga:

tuman (shahar) hokimliklari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lovlarni to‘lovchi jismoniy va yuridik shaxslarning haqqoniy hisobi yuritilishini ta’minlash;

qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lovlarni to‘lash va hisobini yuritishning yagona elektron tizimi faoliyati uzluksizligini ta’minlash;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda shartnomada belgilangan tartib asosida olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to‘lovlar uch oy davomida to‘lanmagan taqdirda, qarzdorlikni undirish bo‘yicha qonunlarda belgilangan tartiblar asosida sudlarga da’vo arizalari kiritilishini ta’minlash;

qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarini ko‘rsatish haqidagi shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyati bo‘yicha kelib tushgan ma’lumotlarni tahlil qilib, viloyat hokimligiga **har chorakda** yozma axborot kiritish vazifasi yuklatilsin.

7. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan **har yarim yil yakunida** xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

8. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2021-yil 21-oktabrdagi Qattiq, suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish (ketish) xizmatlari ta’riflarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi V-37-113-8-0-K/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov ta’riflarini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun Surxondaryo viloyat hokimligiga yuborilsin.

10. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), “Surxondaryo” viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahliliy va tanqidiy ruhda ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Djurayeva) zimmasiga yuklatilsin.

12. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **A.R.Choriyev**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-81-231-8-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun ma’qullangan to‘lovlar

TARIFLARI

T/r	Tuman (shahar) nomi	To‘lov tariflari		
		Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish uchun		Suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish 1 (bir) m3 uchun (so‘m)
		Aholiga 1 (bir) kishiga 1 (bir) oy uchun (so‘m)	Yuridik shaxslarga 1 (bir) m3 uchun (QQSsiz) (so‘m)	
1	Angor	4 500	70 000	70 000
2	Bandixon	4 500	70 000	70 000
3	Boysun	4 500	70 000	70 000
4	Denov	4 500	70 000	70 000
5	Jarqo‘rg‘on	4 500	70 000	70 000
6	Qiziriq	4 500	70 000	70 000
7	Qumqo‘rg‘on	4 500	70 000	70 000
8	Muzrabot	4 500	70 000	70 000
9	Oltinsoy	4 500	70 000	70 000
10	Sariosiyo	4 500	70 000	70 000
11	Termiz	4 500	70 000	70 000
12	Uzun	4 500	70 000	70 000
13	Sherobod	4 500	70 000	70 000
14	Sho‘rchi	4 500	70 000	70 000
15	Termiz shahar	4 500	70 000	70 000